

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ARIPOVA SHAXLO RAUFOVNA

**REGENERATSIYALANGAN TOLALARDAN PNEVMOMEXANIK
USULDA IP OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Aripova Shaxlo Raufovna

Regeneratsiyalangan tolalardan pnevmomexanik usulda ip olish texnologiyasini
takomillashtirish..... 3

Арипова Шахло Рауфовна

Совершенствование технологии получения пряжи пневмомеханическим способом из
регенерированных волокон 25

Aripova Shakhlo Raufovna

Improvement of the technology of producing yarn by pneumo-mechanical method from
regenerated fibers..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

ARIPOVA SHAXLO RAUFOVNA

REGENERATSIYALANGAN TOLALARDAN PNEVMOMEXANIK
USULDA IP OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T5000raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matismailov Sayfulla Lolashbaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xanxadjaeva Nilufar Raximovna
texnika fanlari doktori, professor

Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.T.08.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (220-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 19-fevraldagi 220 raqamli reestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida soʻnggi yillarda ishlab chiqarish chiqindilaridan oqilona foydalanishga qiziqish keskin ortib xomashyo resurslarini koʻpaytirish va atrof-muhitga ekologik yukni kamaytirish imkonini beradigan ip mahsulotlari ishlab chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. 2024 Cotton Incorporated Lifestyle Monitor tadqiqoti, amerikalik isteʼmolchilar paxta tolali matolarni koʻp talab qilayaganligini koʻrsatdi. Bularga tukli sochiqlar (89 foiz), yostiqlar (85 foiz), choyshablar (79 foiz) va boshqa buyumlar misol boʻladi. Poliesterdan tayyorlangan toʻqimachilik mahsulotlariga taqqoslanganda 6 foizi tukli sochiqlar, 12 foizi choyshablar va 10 foizi yostiqlar isteʼmol qilinishi maʼlum boʻldi¹. Shu bois, paxta tolasi chiqindilaridan ham samarali foydalanish yoʻllarini izlashga eʼtiborni oshib borayotgan muhim tarmoqlardan biri bu toʻqimachilik sanoati boʻlib, bu xomashyo zaxirasini yanada oshish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Jahonda ikkilamchi tolali resurslarni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish va sifat koʻrsatkichlari yaxshilangan tolali massani qayta tiklash uchun yangi uskunalar yaratish, shuningdek, yigirish uskunalarning texnik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirishga va takomillashtirishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yoʻnalishda jumladan, past navli paxta tolalaridan samarali foydalanish, pnevmomexanik yigirish mashinasining mexanizmlarini takomillashtirish orqali ip ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mashinalarni ishchi parametrlarini mahsulot sifat koʻrsatkichlariga mos holatda sozlash kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, pnevmomexanik yigirishda tolali chiqindilardan samarali foydalanib, xomashyo resurslarini tejash hamda ip ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz toʻqimachilik sanoatini rivojlanishida mahalliy xomashyolardan foydalangan holda energiya va resurs tejamkor yangi texnologiyalar yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish, yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega toʻqimachilik-yordamchi moddalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Ikkilamchi tolali resurslarni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish va sifat koʻrsatkichlari yaxshilangan chiqindilardan tolali massani qayta tiklash uchun yangi uskunalar yaratish, shuningdek, yigirish uskunalarning texnik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmonida “... toʻqimachilik sanoati mahsuloti ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga koʻpaytirish” boʻyicha vazifalar belgilangan. Bunday ishlab chiqarish hajmida tejalgan birlamchi xomashyoning ulushi ham muhim moddiy boyliklarning sezilarli miqdorini tashkil qiladi. “Paxta tolasini chuqur qayta ishlash va tayyor toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dasturi...”ning maqsadlaridan biri bu “... yakuniy natijaga yoʻnaltirilgan xomashyoni chuqur, uch-

¹ <https://lifestylemonitor.cottoninc.com/why-consumers-want-the-look-feel-of-natural-fibers-at-home/>

to'rt bosqichli qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlarni ishonchli va kafolatli takror ishlab chiqarish" hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tolali chiqindilardan to'g'ri foydalanish orqali iste'molchilar foydalanish mumkin bo'lgan to'qimachilik mahsulotlar assortimenti kengaytirish hamda yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-sonli farmoni, 2020-yil 5-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5989-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar bir qator olimlar tolali chiqindilardan samarali foydalanish, pnevmomexanik usulda ip yigirish mashinalarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Anders Persson, O. Emrah, G.Robert, Mehmet Yemin, W. Luxuan, C.Stone, N.M.Ashnin, D.B.Riklin, V.D.Frolov, O.Kadjekova, D.A.Polyakova, N.N.Xrusheva, Y.F.Chukaev, T.V.Kolmanovich, E.K.Ganeman, V.M.Yudin, S.V.Grekova kabi olimlar va "Temafa" (Germaniya), "Loroch" (Fransiya), "RANDO" (AQSH) firmalari va boshqalar.

Yigiruvbop chiqindilaridan yuqori sifatli ip ishlab chiqarish imkoniyatlarini tadqiq qilish, pnevmomexanik usulda ip yigirish mashinalarni takomillashtirishga O'zbekistonning taniqli olimlari ilmiy ishlar olib borishgan. Bulardan: Q.J.Jumaniyazov, Q.G'.G'ofurov, S.L.Matismailov, R.S.Tashmenov, K.I.Axmedov, J.K.Yuldashev, Sh.F.Maxkamova, Sh.A.Korabaev va boshqalar chiqindilardan oqilona foydalanishning samarali yo'llarini izlashda katta hissa qo'shganlar va ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash texnika va texnologiyalarini takomillashtirish orqali tola va ip sifatining oshishiga erishganlar.

Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasi sezilarli darajada rivojlanishiga qaramasdan, aralashmaga tiklangan tolalarni qo'shishda texnologik jarayonning beqarorligi, uskunalarning past unumdorligi, ip xossalarining me'yor darajasida emasligi kabi muammolar mavjud. Regeneratorlar, pnevmomexanik yigirish mashinalarining alohida qismlaridagi konstruktiv parametrlarining tola va ip sifatiga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati institutini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № IDT-2016-2-6 "Pnevmomexanik yigirish mashinasini

diskretlash zonasini resurstejomkor konstruksiyasini ishlab chiqish va tadbiq qilish” (2016-2017) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi regeneratsiyalangan tolalardan pnevmomexanik usulda ip olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

to'qimachilik tolali chiqindilarni qayta ishlash zamonaviy texnologiyalari va ulardan olingan tolali massadan foydalanish yo'nalishlarini, tasnifini tahlil qilish va ularni qayta ishlash imkoniyatlarini aniqlash;

yigirishga yaroqli tolali chiqindilarni regeneratsiyalash bo'yicha texnika va texnologiyani tahlil etish va regeneratarning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish;

dinamik ta'sirlarda ip tebranishlarini so'ndirilishini ta'minlaydigan pnevmomexanik yigirish mashinasining ip o'tuvchi zichlagichning takomillashtirilgan konstruksiyalarini ishlab chiqish;

pnevmomexanik usulda yigirilgan ip shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ip o'tuvchi zichlagich sirtida ip harakati va tarangligini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish;

tolali chiqindilardan ip ishlab chiqarish imkoniyatlarini tadqiq etish asosida takomillashgan ip o'tuvchi zichlagichni qo'llab pnevmomexanik yigirish mashinasini shaylash parametrlarini ratsionallashtirish;

regenerator va ip o'tuvchi zichlagichni modernizatsiya qilishdagi iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida pnevmomexanik yigirish mashinasi ip o'tuvchi zichlagich, tolali chiqindilarni regeneratsiyalash qurilmasi va regeneratsiyalangan tola olingan.

Tadqiqotning predmeti pnevmomexanik ip yigirish mashinalarida ip o'tuvchi zichlagichni sirtidagi riflyalarning buram taqsimlanishiga ta'siri, tolali chiqindilarni regeneratsiyalash va pnevmomexanik ipning sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida dispersion tahlilning bir omilli usullari, tajribani matematik rejalashtirish, nazariy mexanika, o'lchashning zamonaviy usullar va vositalari, to'qimachilik tadqiqotlarda matematik statistik usullari, regressiya tenglamalarining izochiziqlari talqini usulidan, asosiy ko'rsatkichlarni randomizatsiyalash usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tolalarni tozalash samaradorligini, uskuna unumdorligini oshirish va tolaning shikastlanishini kamaytirishga qaratilgan chiqindilarni regeneratsiyalash mashinasining takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

dinamik ta'sirlarda ip tebranishlarining so'ndirilishini ta'minlaydigan pnevmomexanik yigirish mashinalari ip o'tuvchi zichlagichining takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ip o'tuvchi zichlagich konstruktiv parametrlari ipning kirishdagi va chiqishdagi harakati hamda taranglik kuchlari ta'sirini ifodalovchi tenglamalar olingan;

ipning fizik-mexanik xossalarini ip o'tuvchi zichlagichning konstruktiv xususiyatlariga bog'liqligi va uning ahamiyatliligi bir omilli dispersion tahlili yordamida aniqlangan;

pnevmomexanik yigirish mashinasida takomillashtirilgan konstruksiyali ip o'tuvchi zichlagichni qo'llab mashina asosiy ishchi organlarining ratsional parametrlari ko'p omilli regression modellar tahlillari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijasida pnevmomexanik yigirish usulida o'rtacha chiziqliy zichlikdagi ip ishlab chiqarishda chiqindilardan tiklangan tolalardan 70-80% foydalanish imkoniyati mavjudligi amalda isbotlandi;

olingan natijalarni tahlili asosida takomillashtirilgan konstruksiyadagi ip o'tuvchi zichlagichni ishlatishda pnevmomexanik yigirish mashinasining ratsional shaylash parametrlari taklif qilindi;

pishitilganlik 4 foizga kamaytirilib, ip sifatini yaxshilash va uzilishlar sonini 27 % ga kamaytirish imkoniyati aniqlandi.

1 tonna yigirilgan ipdan olingan iqtisodiy samaradorlik 398,952 ming so'mni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va eksperimental tadqiqotlarning mosligi, aprobat siya va joriy qilinishi natijalarining ijobiyliigi, shuningdek, natijalarning solishtirilishi, baholash mezonlari bo'yicha va ularning adekvatliligi, tadqiqotning ijobiy natijalarini ushbu fan sohasida olingan ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslanishi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pnevmomexanik yigirish mashinasi uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan konstruksiyadagi ip o'tuvchi zichlagichda ipning harakati, tarangligi va pishitishning nazariy asoslanishi, ip sifatiga omillarning (aylanish tezligi va pishitilganlik) ta'sir darajasini aniqlash va omillarni o'zgartirganda ip sifatini bashorat qilish imkonini beradigan regressiya tenglamalari ko'rinishidagi olingan matematik modellar bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati pnevmomexanik yigirish mashinasi parametrlarining hisobiy qiymatlari tavsiya etilgan, barcha asosiy xossalari bo'yicha yaxshilangan ko'rsatkichlarga ega ip namunalari olingan, mashinaning unumdorligi 4,13 kg/soatga, ip pishiqligida tola pishiqligidan foydalanish koefitsiyenti 0,41 dan 0,43 gacha oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashtirilgan ip o'tuvchi moslamani va tola tiklash uskunasi qo'llab pnevmomexanik yigirish mashinasida ip shakllanish jarayonini aptimallashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

pnevmomexanik yigirish mashinasining takomillashtirilgan konstruksiyali ip o'tuvchi zichlagich qurilmasi uchun (№ FAP 01970., 20.05.2022 yil, 13.12.2021 yil, № FAP 01971., 20.05.2022 yil), takomillashtirilgan tolali material chiqindilarini regeneratsiyalash mashinasi uchun (№ FAP 01966., 20.05.2022 yil) O'zbekiston Respublikasining foydali modelga patentlar olingan. Natijada tolali chiqindilarni qo'llab pnevmomexanik usulda sifatli ip ishlab chiqish va ip assortimentlarini kengaytirish imkoniyati yaratilgan;

pnevmomexanik yigirish mashinasida takomillashtirilgan konstruksiyali ip o'tuvchi zichlagichni qo'llab mashina asosiy ishchi organlari ratsional parametrlari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi "TEXTILE FINANCE KHOREZM" MCHJ va "GREAT COTTON EXPORT" MCHJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024 yil 30 apreldagi № 03/25-891 sonli ma'lumotnomasi). Natijada pnevmomexanik yigirish mashinasida foydali vaqt koeffitsiyenti 0,968 dan 0,971 gacha oshdi, bitta mashinaning amaliy unumdorligi 9,18 kg/soatga oshdi, ipdagi tukdorlik ko'rsatkichi 16 % ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari 19 ta, shu jumladan 5 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda va Skopus bazasidagi jurnallarda 1 maqola chop etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan 3 ta foydali modellarga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Xomashyodan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida tolali chiqindilarning paydo bo'lish sabablari, tolali chiqindilar klassifikatsiyasi va ularni ishlatish sohalari, tolali chiqindilardan ip yigirish texnologik tizimlari, pnevmomexanik ip yigirishda tolali chiqindilarni ishlatish imkoniyatlari, tolali chiqindilardan foydalanib, pnevmomexanik usulda ip yigirish va ip xossalarini yaxshilash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

To'qimachilik texnologiyasiga oid jurnallar, maqolalar, ilmiy to'plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy va o'quv adabiyotlaridan foydalanilgan. Shuningdek, sohaga oid internet ma'lumotlari ham o'rganilgan.


So'nggi yillarda tola va chiqindilarning turli massalariga havo girdobi oqimida erkin holatda bo'lgan chiqindilarga inersiya kuchlar ta'sirida jadal ta'sir qilish uchun yangi mashinalar yaratildi.

Yuqori samarali zamonaviy BALKAN (Turkiya), LAROCHE (Fransiya), «TEFAMA» (Germaniya), «SHANDONHG SHUNXING MACHINERY» (Xitoy) liniyalarida tolalarni tozalash va regeneratsiyalash samaradorliklari tahlil qilindi, to'qimachilik chiqindilarini tola holiga keltirish uchun regeneratsiya qilish jihozlarini takomillashtirish, jihozning konstruktiv tuzilishi va uni ishlashini baholash usullarini, ip yigirish korxonalari tolali chiqindilardan katta chiziqliy zichlikdagi iplar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalanish, tozalash qobiliyatini yaxshilash va tolalar komplekslarini alohida-alohida tolalarga ajratilish yo'llarini aniqlash, regeneratsiyalangan tolalardan ip yigirishda foydalanish, pnevmomexanik ip yigirishda ipga buram berishda buramlarni bir tekis taqsimlanishini, ipning uzish kuchini oshirish uchun ip o'tuvchi zichlagichlarni takomillashtirish orqali yigirilayotgan ip sifatini oshirish, tiklangan tolali aralashmadan yigirilgan ipning fizik-mexanik xossalari tahlillari natijasiga ko'ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Pnevmomexanik yigirish mashinasi ip o'tuvchi zichlagichning konstruktiv parametrlarini hisoblash”** deb nomlangan ikkinchi bobida pnevmomexanik yigirish mashinasi ip o'tuvchi zichlagichining takomillashtirilgan konstruksiyalarini ishlab chiqish hamda uning samaradorliklarini baholash, ip o'tuvchi zichlagich konstruktiv parametrlarini silliq sirtli, siyrak joylashgan bo'rtiq riflyali va zich joylashgan bo'rtiq riflyalarini ip tarangligiga ta'siri, yigirish kamerasida shakllanayotgan ipning harakatini dinamik tahlili tadqiqotlari yoritilgan.

Ip tarangligining o'zgarishiga olib keluvchi dinamik ta'sirlar ostida yuzaga keladigan ip tebranishlarini bartaraf etish maqsadida ip o'tuvchi zichlagichning takomillashtirilgan konstruksiyasi loyihalandi.

Takomillashtirilgan konstruksiyali zichlagichning asosiy vazifasi ipga berilayotgan buramlar sonini bir xil taqsimlash hisobiga ularni pishiqligini oshirishdan iborat.



1-rasm. Pnevmomexanik yigirish mashinasining ip o'tuvchi zichlagichi

Pnevmomexanik yigirish mashinasining ip o'tuvchi zichlagichning ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan, bu yerda 1 shaxl-ip o'tuvchi zichlagichning umumiy ko'rinishi, 2 shaxl-A ko'rinishi.

Ip chiquvchi zichlagich 1 dan o'tishda spiral 4 ichki sirti bo'rtliqli ishlangani hisobiga buram oladi. Bunda ip harakati yo'nalishi bo'yicha spiral 4 qadami kamayishi ipning buram chastotasining oshishiga olib keladi va ip yetarlicha pishitiladi.

So'ngra yetarli darajada buram olgan ip ip o'tkazish trubka 3 ning teshigi 5 dan o'tadi. Ipning ishlatilishiga qarab, ip o'tuvchi zichlagich spiral 4 qadamlari turli o'lchamli va almashtiriladigan qilib yasalishi mumkin. Konstruksiya ip o'tuvchi zichlagich spiralini o'zgaruvchan qadamli qilib yasalganligi hisobiga yuqori sifatli ip olish imkonini beradi.

Ip o'tuvchi zichlagichining ichki sirtini ip taranligiga ta'sirini o'rganish uchun ip o'tuvchi zichlagichini 3 xil holatdagi taranglik kuchlari nazariy o'rganildi.


I holatdagi (silliqli sirt), II holatdagi (riflyalari siyrak joylangan sirt) va III holatdagi (riflyalari zich joylashgan sirt) ipning taranglik kuchlari aniqlandi.

I holatdagi (2-rasm a, silliqli sirt) ipning taranglik kuchlarini aniqlash Ipning $AB=S$ yoy bo'yicha uzunligi S , R radiusli ipning o'zgarish φ -qamrash burchagidan o'tadi. Ip va shkiv orasidan ishqalanish koeffitsiyenti Amonton qoidasiga asosan aniqlanadi, ya'ni

$$T_{\max} = k \cdot N$$


Bu yerda: k -ishqalanish koeffitsiyenti, N -ipga sirt yuzasida ta'sir qiluvchi normal bosim kuchi.

Iplarning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlari $T_1(t)$ va $T_2(t)$ tarzda o'zgarsa $T_2 > T_1 \cdot S$ bo'lsa ip harakatda bo'ladi. Ipning harakat qonunini va uning chiqishdagi tarangliklarni aniqlandi.



$$AB=S$$

a)



$$A_1B_1 = S_1 - T_1^*, A_2B_2 = S_2 - T_2^*, A_3B_3 = S_3 - T_3^*$$

b)

2-rasm. Ipning yoy bo'ylab harakat sxemasi

$$T_2^I = [T_1 - \mu \vartheta^2 + \mu \cdot \frac{d\vartheta}{dt} (l_1 + \frac{r}{k} - \int_0^{l_1} \vartheta dt)] e^{-\frac{k(l_1 - \int_0^{l_1} \vartheta dt)}{r}} - \frac{\mu r}{k} \left(\frac{d\vartheta}{dt} - \frac{k}{r} \vartheta^2 \right) \quad (1)$$

Ip o'tuvchi zichlagichga kirishdagi va chiqishdagi ipning tarangliklarini ifodalovchi tenglama (1) olindi.

II holatdagi (2-rasm b, riflyalari siyrak joylangan sirtdagi) ipning taranglik kuchini aniqlash.

Bu yerda $\varphi_1 \varphi_2 \varphi_3$ ipning har bir oraliqdan o'tishdagi qamrash burchaklari.

Har bir riflyadan o'tayotgan ipnig zichligini oshirish va shu orqali ipning tarangligini tahlil qilish va ipning A_1B_1 , A_2B_2 va A_3B_3 yoylardan o'tishdagi zichlikni oshirishini aniqlash uchun Amonton qoidasiga asosan ko'rib chiqamiz.

Har bir riflyadagi ipning tarangligini quyidagicha aniqlanadi. $T_1^* = k \cdot N_1$, $T_2^* = k \cdot N_2$, $T_3^* = k \cdot N_3$ bu yerda, k – ishqalanish ko'effitsiyenti, N_1 , N_2 , N_3 – ip yuzasiga ta'sir qiluvchi normal reaksiya kuchlari. Iplarning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlari $T_1^I(t)$ va $T_2^I(t)$ tarzda o'zgarsa $T_2^I > T_1^I$ bo'lsa, ip harakatda bo'ladi. Ipning harakat qonunini va uning chiqishdagi tarangligini aniqlaymiz.

$$T_2^I = T_1^* + T_2^* + T_3^* - \mu v^2 + \mu \frac{dv}{dt} \left(S_1 + S_2 + S_3 - \int_0^{S_1} v dt - \int_{S_1}^{S_2} v dt - \int_{S_2}^{S_3} v dt \right) \cdot e^{-\frac{k}{r} \left(S_1 + S_2 + S_3 - \int_0^{S_1} v dt - \int_{S_1}^{S_2} v dt - \int_{S_2}^{S_3} v dt \right) - \frac{\mu r}{k} \left(\frac{dv}{dt} - \frac{k}{r} v^2 \right)} \quad (2)$$

Bu yerda $T_1^I = T_1^* + T_2^* + T_3^*$, $S_1 = r \cdot \varphi_1$, $S_2 = r \cdot \varphi_2$, $S_3 = r \cdot \varphi_3$ ga teng, bunda (2) tenglama uchta riflyadan o'tuvchi ipning kirishdagi va chiqishdagi taranglik kuchlarini ifodalovchi tenglamasi keltirilgan.

III holatdagi (riflyalari zich joylashgan sirtdagi) ipning taranglik kuchini aniqlash.

$$T_2^{II} = T_1^* + T_2^* + T_3^* + T_4^* + T_5^* + T_6^* + \mu \frac{dv}{dt} (S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 - \int_0^{S_1} v dt - \int_{S_1}^{S_2} v dt - \int_{S_2}^{S_3} v dt - \int_{S_3}^{S_4} v dt - \int_{S_4}^{S_5} v dt - \int_{S_5}^{S_6} v dt) \cdot e^{-\frac{k}{r} A - \frac{\mu r}{k} \left(\frac{dv}{dt} - \frac{k}{r} v^2 \right)} \quad (3)$$


bu yerda; $T_1^{II} = T_1^* + T_2^* + T_3^* + T_4^* + T_5^* + T_6^*$

$$A = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 - \int_0^{S_1} v dt - \int_{S_1}^{S_2} v dt - \int_{S_2}^{S_3} v dt - \int_{S_3}^{S_4} v dt - \int_{S_4}^{S_5} v dt - \int_{S_5}^{S_6} v dt$$

(3) tenglama oltita riflyadan o'tuvchi ipning kirishdagi va chiqishdagi tarangliklarini ifodalovchi tenglama. Riflyalar orasidagi masofalariga qamrash burchaklariga ipning zichligini oshirishdagi chiqish tezligiga bog'liqlik tenglamasi keltirilgan. Bu tenglamadan foydalanib Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil qilingan.

Olingan tenglamalardan va grafiklar tahlilidan riflyalar orasidagi masofalar va qamrash burchaklarida ipning zichligini oshirishda ip chiqishdagi tezligi $\vartheta_3 = 77.2 \text{ m/c}$ bo'lganda ratsional natijalarni olish imkonini berishi isbotlandi.

Tolalarni diskret oqimi transportirovka kanali orqali aylanib turgan kameraga tushadi.



3-rasm. Takomillashtirilgan zichlagichni ipning kirishdagi a) va chiqishdagi b) tarangligini turli xil tezliklarda $v_1 = 76.6 \text{ m/s}$ $v_2 = 74.3 \text{ m/s}$ $v_3 = 77.2 \text{ m/s}$ qamrash burchagiga bog‘liqligi

Kameraning ichiga tashqaridan ip tushirilsa, u darhol markazdan qochma kuch ta’sirida kamera sirtining eng keng diametrli joyi – novga boradi va halqasimon piltacha bilan tutashadi. Tolali piltachani kameradan chiqarish va kameraga diskret tolalar oqimini uzatish o‘yiq qismda ustma-ust joylashtirib tolali piltacha hosil qilish uzluksiz davom etadi.

Ip hosil bo‘lish zonasi uzunligi ifodasi quyidagicha aniqlanadi:


$$y = \frac{2\sqrt{a(l-a)}}{\pi n} \sin\left(\frac{\pi n}{a} x\right) \quad (4)$$

(4) tenglamadan foydalanib ipning taranglik kuchi quyidagicha ifodalaniladi:


$$T = \frac{\mu_0 \omega^2 a^2}{\pi^2 h^2} \left[1 + 2 \frac{l-a}{a} \cos^2\left(\frac{\pi n}{a} x\right) \right] \quad (5)$$

(4) va (5) tengliklardan ishchi kamerada hosil bo‘ladigan ipning buramlar sonini ta’sirini hosil qilishda yigirish kameradagi ipning harakatini hamda taranglik kuchlarini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilindi.

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan kelib chiqib, OY o‘qi bo‘yicha harakatlanayotgan ip yigirish kamerasidagi aylanishlar sonining $n_2 = 58000 \text{ min}^{-1}$ qiymatda ipning taranglik kuchini oshishini grafiklarda ko‘rish mumkin.



4-rasm. Ip hosil bo'lish zonasi uzunligini yigirish kamerasining aylanishlar chastotasining turli xil $n_1=57500 \text{ min}^{-1}$; $n_2=58000 \text{ min}^{-1}$; $n_3=58500 \text{ min}^{-1}$ qiymatlarida vaqtga bog'liqligi



5-rasm. Ip shakllanishida yigirish kamerasidagi taranglik kuchini aylanishlar chastotasining turli xil $n_1 = 57500$; $n_2 = 58000$; $n_3 = 58500$; qiymatlarida vaqtga bog'liqligi

Dissertatsiyaning “**Yangi konstruksiyali regenerator va ip o'tuvchi zichlagichning ip xossalriga ta'sirini o'rganish**” deb nomlangan uchinchi bobida tolali chiqindilarni regeneratsiyalash uchun takomillashtirilgan konstruksiyali tozalash mashinasi ishlab chiqilgan, tadqiqotni o'tkazish metodikasi, turli konstruksiyali ip o'tuvchi zichlagichlarning yigirilgan ip fizik-mexanik xossalriga ta'sirini qiyosiy baholash, bir omilli dispersion tahlil yordamida ip sifatiga omil (ip o'tuvchi zichlagich) ta'sirining ahamiyatini baholash va takomillashtirilgan konstruksiyadagi ip o'tuvchi zichlagichni ishlatishda pnevmomexanik yigirish mashinasining shaylash parametrlarini ratsionallashtirish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar yoritilgan.

Tolali chiqindilarni regeneratsiyalovchi mavjud mashinalarning konstruksiyalarini o'rganish va tahlil qilishdan ma'lum bo'ldiki, konstruksiyalarning asosiy kamchiliklari ularning murakkabligi, katta o'lchamliligi, chiqindilar bilan tolalarni aralashib chiqib ketishi va regeneratsiyalash samarasining pastligi hisoblanadi.


Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun mashinaning konstruksiyasini takomillashtirish taklif qilindi.

Takomillashtirilgan konstruksiyaning mohiyati shundan iboratki, tolali materiallarni regeneratsiyalovchi mashina dastlabki tozalashni amalga oshiruvchi ta'minlash zonasi va uchta tozalash zonasidan iborat.

Tolali chiqindilarni regeneratsiyalash mashinasi quyidagicha ishlaydi (6-rasm).

Tolali chiqindilar ta'minlovchi quvur 1 orqali to'rtli baraban 2 ga uzatiladi va ventilyator 31 dan havo so'rilishi hisobiga uning yuzasida ma'lum bir qalinlikda cho'ziladi. Qoziqli ajratuvchi baraban 3 to'rtli baraban 2 yuzasidan tolalar tutamini alohida bo'lakchalarga ajratib titadi va ularni dastlabki tozalashga uzatadi.

Bu yerda ma'lum qatlama ega bo'lgan tolali massa yo'naltiruvchi valiklar 4 orqali yirik shtiftli 6 baraban 5 ga uzatiladi. Bu zonada massasi 5 mg gacha bo'lgan tola bo'lakchalari kolosniklar 7 dan olib o'tiladi, begona iflosliklar havo ventilatori 34 orqali tozalanadi. So'ngra tolali massa bunker 8 orqali yo'naltiruvchi valik 9 va ta'minlovchi valik 10 ga uzatiladi.



6-rasm. Tolali chiqindilarni regeneratsiyalash mashinasining umumiy tuzilishi

Uzatilayotgan tolali massa qatlami baraban 12 ning ignali garniturasini 13 ignalari bilan ushlanadi va kolosniklar 14 dan olib o'tiladi. Bunda, tolali bo'lakchalar massasi 1,0 mg gacha kamayadi. So'ngra tolali qatlam yo'naltiruvchi 17 va ta'minlovchi 18 valiklar, tishli garniturali 20 baraban 19 orqali uzatiladi va kolosniklar 21 da tozalanadi.


Bu holatda, tolali bo'lakchalar massasi 0,7 mg ga yetadi. Uchinchi tozalash zonasida tolali qatlam baraban sirtiga yupqa qilib yotqiziladi va massasi 0,5 mg gacha kamaygan tolali bo'lakchalar taz 33 ga joylanadi. Jarayon davriy ravishda takrorlanadi, baraban 19 aylanish chastotasining (10-15)% baraban 12 ning aylanish chastotasiga nisbatan oshishi, shuningdek, baraban 26 aylanish chastotasining (10-15)% baraban 19 ning aylanish chastotasiga nisbatan oshishi tolali qatlamni uzatishdagi uzilishlarni bartaraf etadi, tolalar shikastlanishini kamaytiradi, mashinaning unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar regeneratsiyalangan tolalardan chiziqli zichligi 49,2 teks (Ne 12) bo'lgan pnevmomexanik ip ishlab chiqarildi.

Xomaki mahsulotlar va ip ishlab chiqarish uchun 50% st. 7/11 (tarashdagi momiq va tugunaklar hamda shlyapka tarandisi) va 50 % st. 16 (qayta tarash tarandisi)dan iborat bo'lgan tolali chiqindilar aralashmasidan foydalanildi.

Regeneratsiyalangan tolalar uzunligini aniqlash uchun individual o'lchash usuli qo'llanildi. Nominal uzunlik taqsimoti ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, maksimal uzunlikning ulushi 15% tashkil qildi. Regeneratsiyalangan tolalarda uzun tolalarni mavjudligi uchun ularni tolali xomashyo sifatida ishlatishga asos bo'la oladi.

Xomashyoni qayta ishlash tajriba tadqiqotlari TTYSI "Yigirish texnologiyasi" o'quv laboratoriyasida o'rnatilgan Truetzschler firmasi (Germaniya) texnologik

uskunalarida hamda Chex Saurer firmasi (Chexiya) pnevmomexanik yigirish mashinasida ikki bosqichda olib borildi.



7-rasm. Regeneratsiyalangan tola uzunliklari taqsimoti

(1 – Tozalashdagi momiq va tugunaklar (st 3); 2 – Tarashdagi momiq va tugunak va shlyapka tarandisi (st 7+11); 3 – Qayta tarash tarandisi (st 16).

Birinchi bosqichda turli konstruksiyadagi pnevmomexanik yigirish mashinasining ip o'tuvchi zichlagichlarning regeneratsiyalangan ("Barakat alfa" QK o'rnatilgan yangi regeneratsiyalash qurilmasida st 3, st 7+11 tolali chiqindilar regeneratsiyalandi) tolalardan yigirilgan ip ishlab chiqarildi va ip sifatiga regeneratsiyalangan tolalar ulushini ta'sir etish darajasi qiyosiy o'rganildi.

Barcha variantlardagi xomaki mahsulotlar va ip namunalari uch takroriylikda TTYSI o'quv laboratoriyasi yigirish rejasi bo'yicha ketma-ket bir xil texnologik uskunalarda bir xil kameralarda chiziqliy zichligi 49,2 teksli (Ne12) ip ishlab chiqarildi.

Ikki variantdagi iplarning sifat ko'rsatkichlari taqqoslandi:

- nazorat (zavodda ishlab chiqarilgan ip o'tkazuvchi qurilmasi);
- tajriba (takomillashtirilgan konstruksiyali ip o'tkazuvchi qurilmasi).


Taqqoslanayotgan variantlardagi iplarning asosiy fizik-mexanik xossa ko'rsatkichlari 8-rasmdagi diagrammalarda tasvirlangan.

8-rasmdan ko'rinib turibdiki, tajriba variantdagi ipning solishtirma uzilish kuchi nazorat variantidan 0,43 sN/teksga yuqori bo'lib, 9,34 sN/teksga teng (nazorat variantida 8,91 sN/teks).

Ipda tola pishiqligidan foydalanish koeffitsiyenti nazorat variantida 0,41 dan nisbatan 0,43 ga oshdi.

Iplarning ko'ndalang kesim bo'yicha kvadratik notekisligi (C_m) o'rtacha 13,56 dan 13,2% ga kamaydi. Pishitish jarayonini barqarorlashishiga ip o'tuvchi zichlagichning ta'sirini C_m/U_m nisbati (me'yor 1,25) bilan baholash mumkin, bu tajriba variantida 1,261, nazoratda 1,263 ga teng. Ipni keyingi qayta ishlash texnologiyasida uzayish

katta ahamiyatga ega. Ipda buramlar sonining ortishi va buramning yaxshi joylashishi hisobiga tajriba variantida uzayish biroz yuqori, bo'lib 6,11% teng, nazorat variantida esa - 6,08%. Pishirilganlik bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti esa aksincha 20,2% (nisb.) kamayib, 3,8% tashkil etdi (nazorat variantida 4,95%).



8-rasm. Ip sifatining asosiy ko'rsatkichlari

Ip o'tuvchi zichlagich konstruksiyasining ip sifatiga ta'sirining ahamiyatligini baholash bir omilli dispersion tahlili yordamida aniqlandi.

Chiquvchi parametrlar sifatida ipning solishtirma uzish kuchi (y_1), uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti (y_2) va ipning uzayishi (y_3) olingan.

Fisher mezoni bo'yicha dispersiyalar hisobiy qiymatlari (ipning solishtirma uzish kuchi bo'yicha-17,18, uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti - 14,188 va ip uzayishi - 22,6) ni jadvaliy qiymat ($F_t=7,71$) bilan solishtirilganda sezilarli darajada farq qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Tajriba tadqiqotlari va olingan natijalarning dispersion tahlili asosida ip o'tuvchi zichlagichning yangi konstruksiyasi afzalliklari isbotlangan deb hisoblash mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida takomillashtirilgan konstruksiyadagi ip o'tuvchi zichlagichni pnevmomexanik yigirish mashinasiga o'rnatishda: yigirish kamerasining aylanish chastotasi (x_1) va ip burami (x_2) omillarining ratsional mosligini aniqlash uchun to'la omilli tajriba TOT 3² o'tkazildi. Omillarning o'zgarish darajasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Omillarning o'zgarish darajasi

Omillar	Omillar qiymati			Variatsiya oralig'i
	-1	0	+1	
X_1 –yigirish kamerasining aylanish chastotasi, min ⁻¹	57500	58000	58500	500
X_2 –ip buramlar soni, bur/m	750	780	810	30

Har bir ratsionallash parametri uchun regression tenglama olindi.

Dispersiya bir jinsliligi Koxren mezoni yordamida, regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatga molikligi Styudent mezoni yordamida, regression tenglama adekvatligi esa Fisher mezoni yordamida aniqlandi.

Ahamiyatsiz bo'lgan koeffitsiyentlarni olib tashlagandan so'ng regressiya tenglamalari quyidagicha bo'ldi:

Ipning solishtirma uzish kuchi, (y_1), sN/teks

$$y_1 = 9,12 - 0,117x_1 + 0,127x_2 - 0,083x_1^2; \quad (6)$$

Uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti (y_2), %


$$y_2 = 10,17 + 0,027x_1 + 0,098x_2; \quad (7)$$

Uzayish (y_3), %


$$y_3 = 6,11 - 0,067x_1 + 0,052x_2 + 0,025x_1 \cdot x_2 - 0,037x_1^2; \quad (8)$$

Tenglamalarning adekvatligiga ishonch hosil qilib, kameraning aylanish chastotasi va buramlar soni ipning pishiqligi, ravonligi va uzayishiga ta'sir qiladi degan xulosaga kelindi.


Omili tajriba natijalarining yuza sifatida geometrik tahlili qilindi. Har qaysi holda ikki o'lchovli fazoda yuza aniqlandi.



a)



b)



v)

9-rasm. Regressiya tenglamalarining grafik ko‘rinishi. a) Ipning solishtirma uzish kuchi, (y_1), sN/teks. b) Uzish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti (y_2), %. v). Uzayish (y_3),%

(6) regressiya tenglamasi uchun tuzilgan yuzasini tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, qabul qilingan qiymatlarda X_1 va X_2 omillarni o'zgartirib, ipning solishtirma uzish kuchini 8,76 sN/teks dan 9,4 sN/teks ga, ya'ni 0,64 sN/teks oshirish mumkin.

